

O'ZBEKİSTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

2022 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

2022 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rincbosarlar: Zaynobiddin Abdirashidov

Qosimboy Ma'murov

Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G'aybullha Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jo'raqo'ziyev.

Tahrir hay'ati

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Üşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O'zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Oqilxon Ibrohimov (O'zbekiston)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiylar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:	Shuhrat Sirojiddinov
Deputy Editors in Chief:	Zaynabiddin Abdirashidov Kasimbay Mamurov
Executive secretary:	Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybullha Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jurakuziyev.

Editorial Committee

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdulvahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Oqilkhon Ibrohimov (Uzbekistan)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Yorqinjon Odilov

Jamiyat, til va madaniyat.....6

Muhayyo Hakimova

O'zbek tilida "holat" ma'noli abstrakt nomlar.....18

Мехмет Джан

Прошлое и настоящее алфавитов, используемых в тюркских республиках.....31

Surayyo Ziyotova

"Mehrobdan chayon"da ifodalangan ijtimoiy-siyosiy leksikalar.....44

Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik

Bahodir Karimov

O'zbek jadid nasri va Abdulla Qodiriy.....61

Marg'uba Abdullayeva

Paremik janrlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari (tarixiy-nasriy asarlar misolida).....72

Nodira Egamqulova

Turkistonda milliy matbuot, adabiyot va adabiy til.....89

Tarix. Manbashunoslik

Shamsiddin Kamoliddin, Shoiraxon Saidjabbor

O'rta asr Samarqand bozorlari haqida yangi ma'lumotlar.....104

CONTENT

Linguistics

Yorkinjon Odilov

Society, language and culture.....6

Muhayyo Hakimova

Abstract nouns meaning "situation state" in Uzbek.....18

Mehmet Jan

Past and present alphabets used in the Turkic republics.....31

Surayyo Ziyotova

Socio-political vocabulary expressed in the work

"Mehrobdan chayon".....44

Literature. Translation studies

Bahodir Karimov

Uzbek jadid prose and Abdulla Qadiri.....61

Marguba Abdullaeva

Ildeological and artistic properties of paremiological genres

(on the example of historical and prose works).....72

Nodira Egamkulova

National press, literature and literary language in Turkestan.....89

History. Source studies

Shamsiddin Kamoliddin, Shoirakhon Saidjabbor

New data on the *bāzārs* of the medieval Samarqand.....104

LINGVISTIKA
LINGUISTICS

Jamiyat, til va madaniyat

Yorqinjon Odilov¹

Abstrakt

Mazkur maqola tilning jamiyat va madaniyat bilan munosabatini o'rghanishga bag'ishlangan. Unda tilning jamiyat hayotidagi o'rni, madaniyatning mohiyati, "madaniyat" atamasining istilohiy ma'nolarini aniqlashga, tilning madaniyat bilan, madaniyatning til bilan ta'sirlashuvini ochib berishga, tilning madaniyatni, madaniyatning tilni shakllantirishdagi ishtirokini ilmiy asoslashga diqqat qaratilgan. Maqolaning asosiy mazmunida til va madaniyat o'rtasida doimiy ta'sirlashuv qonuniyati amal qilishi, buning natijasida madaniyatdagi o'zgarish-u yangilanishlarning tilda aks etishi, o'zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchi inson, jamiyat ekanligi haqidagi qarash ustuvor. Xalqning rang bilish tarzi o'ziga xos bo'lishi, bunday milliy nigohning natijalari uning tilida voqelanishini o'zbek, rus, ingliz tillaridan olingan misollar vositasida tushuntirilgan. Shu munosabat bilan ranglarning ijobiy va salbiy baholarda idrok qilinishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: *jamiyat, til, madaniyat, lingvomadaniyat, til va madaniyat ta'sirlashuvi, milliy-madaniy semali so'zlar, maza-ta'm va rang bildiruvchi so'zlar.*

Kirish

Til va madaniyat milliy dunyoqarashni namoyon etadigan aqliy-ruhiy quvvat bo'lib, ularni harakatlantiruvchi kuch – inson, jamiyat va millatdir. Zotan, til ham, madaniyat ham jamiyatda shakllanadi va rivojlanadi, aksincha, ularning tanazzuli ham jamiyat doirasida kechadi. Jamiyat o'z a'zolarining madaniy tutumlari bilan tilga, til o'z egalarining lisoniy faoliyati bilan madaniyatga ta'sir qilib turadi. Bu tarz ta'sirlashuvlar jamiyatda faqat unga xos

¹ Odilov Yorqinjon Rahmonaliyevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti.

E-pochta: yorqinjon-1979@yandex.ru

ORCID ID: 0000-0001-7109-0195

Iqtibos uchun: Odilov, Y. R. 2022. "Jamiyat, til va madaniyat". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2: 6-17.

til ko'nikmalarini yuzaga keltiradi, madaniy malakalarni qaror toptiradi. Inson madaniy tajriba, lisoniy bilimlarga ega bo'lib borish bilan o'z shaxsiyatini shakllantiradi, shaxsiyatlar birlashib esa millat zehniyatini tarkib toptiradi. Jamiyat – til – madaniyat tarzidagi muntazam ta'sirlashuvda lisoniy va madaniy malakalarning o'zgarib turishi qanchalik tabiiy bo'lsa, jamiyat a'zolarining o'z lisoniy va madaniy ko'nikmalarini barqaror saqlashga intilishi ham shunchalik tabiiy. Masalan, tilning lug'at tarkibida yangi leksemalarning paydo bo'lishi yoki so'zlearning eskirib, qo'llanishdan to'xtashi doimiy jarayon, shu bilan birga, tilda doimiy barqaror, doimiy faol leksika ham mavjud, ular tilning faol qatlami sifatida qo'llanishdan to'xtamaydi. Demak, o'zgarishga moyillik va barqarorlikka intilish tilning ham, madaniyatning ham muhim xususiyati.

Til va madaniyat etnos shakllanishining muhim omillari dan biri sifatida kishilarni qabila-qavm o'larоq yaqinlashtiradi, xalq sifatida birlashtiradi. Xalqimiz tarixining avvalgi davrlarida qarluq lahjasining qipchoq, o'g'uz, qisman, uyg'ur singari katta turkiy elatlar hamda boshqa mayda qabilalarni adabiy til o'larоq yaqinlashtirgani, xalq sifatida birlashtirgani buning dalilidir. Ana shu davrdan eski turkiy tilda **y**-lashish jarayoni boshlangani ham qoraxoniylar davlatida qarluq qabila vakillarining ta'siri kuchaygani, shu qabila til xususiyatlarining rasmiy til maqomini olgани bilan bog'liq, albatta. "Yer yuzidagi jami 200 ta davlatda 3000 dan 5000 gacha etnos istiqomat qilishini nazarda tutadigan bo'lsak" [Бочегова 2010, 12], demak, shuncha miqdorda til va madaniyatning mavjudligi mutlaqo tabiiy.

Asosiy qism

Til va madaniyatning o'zaro ta'sirlashuvini o'rganish maqsad qilingani bois dastlab *madaniyat* so'zining istilohiy ma'nosiga to'xtalamiz. *Madaniyat* o'zbek tiliga arab tilidan o'zlashgan, hozirgi o'zbek tilida "jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmuyi", "biror ijtimoiy guruh, sind yoki xalqning ma'lum davrda qo'lga kiritgan shunday yutuqlari darajasi", "o'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik", "madaniyatli shaxs talablariga javob beruvchi sharoit" hamda "q.x. o'simlik yoki ekinning turlarini yetkazish, o'stirish, yetishtirish (dehqonchilik madaniyati)" [ЎТИЛ (2), 521] ma'nolarini ifodalaydi. O'zbek xalqining chorvachilik, dehqonchilik, ishlab chiqarish, ijtimoiyot, ma'naviyat va boshqa sohalardagi tajribalari mazkur ma'nolarda jam bo'lgan.

Madaniyat atamasining Yevropa tillaridagi muqobillari asli lotincha “cultura” co’zidan kelib chiqqan bo’lib, manba tilda dastlab “yerga ishlov berish” ma’nosini anglatgan. “Култура” so’zining aniq xatti-harakat haqidagi tushuncha (yerga ishlov berish)ni ifodalashdan aqliy-ruhiy tushunchalarni atashga o’tishi antik davrlardayoq boshlangani lingvistik manbalardan ma’lum. R.A.Budagov “культура” so’zi III-VI asrlar lotin tilida “ijtimoiy axloq”, “bilim”, “tajriba”, “tarbiya” ma’nolarini ifodalashga o’tib bo’lganini aytadi. Qadim lotincha atama ayni kengaygan semantik tarkibi bilan avval fransuz tiliga o’zlashgan, keyin fransuz tilidan boshqa Yevropa tillariga o’tib faollashgan. XIV-XVII asrlarda ham mazkur atamada ma’no kengayishi davom etgan. XIX asrga kelib ayni atamaning “yerga ishlov berish” ma’nosi Yevropa tillarida qariyb unutilgan vaqtida fransuz tili orqali rus tilida paydo bo’lgan [Будагов 1971, 108-109], hozirgi kunda ishlab chiqarish, aqliy, ma’naviy va ruhiy hayotga doir tushunchalar ifodasi uchun qo’llanadi, faqat bir ma’nosi (o’zbek tilida ham shunday) ziroatchilikka oid. Buni “Rus tilining izohli lug’ati”dagi izohlar tasdiqlaydi [Ожегов, Шведова 2006, 313-314].

Globallashgan dunyoda madaniyat mavzusi turli fanlarning tadqiq obyektiga aylanib bo’lgan, hatto madaniyatni o’rganishga yo’naltirilgan alohida maktablar shakllangan. Bu borada olimlar madaniyat va shaxsiyatni psixologik hodisa sifatida o’rganuvchi F.Boas mакtabini ko’rsatadilar. F.Boasning fikricha, madaniyat – inson ulg’ayib egallaydigan qoidalar majmuyi bo’lib, nafaqat til, hatto tuyg’u ham xalq tarixi va keyingi ijtimoiy hayot natijasidir [Boac 2020].

Madaniyat – idioetnik hodisa, uning tilda qanday namoyon bo’lishini lingvomadaniyatshunoslik, etnolingvistika, sotsiolingvistika o’rganadi. Shu ma’noda lingvomadaniyatshunoslik tilning madaniyatni voqelantirish funksiyalari hamda tafakkur bilan ta’sirlashish tarzlariga, madaniyatning tilni shakllantirishdagi ishtirokiga diqqat qaratadi. Til o’zining kommunikativ yoki estetik vazifalarini ham jamiyatda belgilangan qoidalar doirasida yuzaga chiqaradi. Bundan boshqacha bo’lishi mumkin emas. Masalan, o’zbek tilida *do’ppi, sella, belbog’* so’zlari bor va ularning semantikasidan milliy-madaniy semalar joy olgan. Uchala so’z ham bosh kiyimni bildiradi, biroq *do’ppi* va *belbog’da* kiyinish madaniyatimiz, *sallada* diniy madaniyatimizga xos konnotatsiya mayjud. Ular shakllangan madaniy qoidalarga muvofiqqina qo’llanadi, masalan, *salla* so’zi faqat diniy konnotatsiya bilan nutqqa olib kiriladi, milliy kiyim

turi sifatida qo'llana olmaydi. Ushbu so'zlar ayni konnotatsiyasi yoki milliy-madaniy semasi bilan olamning konseptual va lisoniy manzarasida o'rashib bo'lgan.

Milliy madaniyat – xalqning fitratida bo'lishi bilan ham noyob hodisa. Masalan, demokratiya – Amerika madaniyatining ajralmas qismi. Shu bois u yerda “o'n olti yashar bola otasi bilan ellik dollar talashib, sudga murojaat etsa-yu, g'olib chiqib, otasini ming dollar jarima to'lashga majbur qilsa, bu – demokratiya tantanasi sanaladi. Bizlarda shunday hodisa ro'y bersa, bunaqa bolani “oqpadar” deydilar va bir umr la'natlaydilar” [Hoshimov 2018, 59].

A.Vejbitskaya har bir tilda shu madaniyatga ishora qilib turadigan so'zlar bo'lishini va ular “madaniyat kalitlari” [Вежбицкая 2001, 35-38; 1996] hisoblanishini aytadi. Bunday til birliklarining o'ziga xosligi milliy-madaniy semalar bilan to'yinganidir (O'zbek tilida bu atamani *milliy-madaniy semali so'zlar* bilan almashtirish mumkin). Olimaning fikricha [Вежбицкая 2011(а, б)], rus tilida bunday so'zlar, asosan, abstrakt ma'noli va ular shu millatga xos, shu xalq muhim hisoblagan tushunchalarda aks topadi: “сила духа”, “душа”, “судьба”, “гопе”, “вероятность” kabi so'zlar rus madaniyatining kalitlaridir [Колесов 2004; Зализняк в.б., 2005].

Faqat rus tilida emas, aksar tillardagidek o'zbek tilida ham milliy-madaniy semali so'zlar abstrakt ma'nolidir. Masalan, muomalada og'irlik, vazminlik o'zbek madaniyatida qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Shu bois o'zbek tilida kishining bunday sifatini ifodalaydigan sinonimik qator shakllangan: *og'irlik, vazminlik, bosiqlik, sopolik*. Mazkur sinonimlar uchun “o'z xatti-harakatlari, his-tuyg'ularini boshqara bilish holati” ma'nosи umumiy bo'lsa ham mazkur sinonimlar odamning turli vaziyatlarda o'zini tutishi, so'zlash tarziga nisbatan farqli qo'llanadi. Masalan, *bosiqlik* bilan *sopolikning* o'rtasida jiddiy tafovut bor. Mazkur so'zlar o'rtasidagi ma'no nozikligini bilib olish madaniyat kalitini qo'lga kiritishdir.

Shuningdek, andishalilik o'zbek madaniyatining o'zak tushunchalaridandir. Bu so'zning rus yoki ingliz tilida muqobili yo'q. Quyidagi matn ana shu tushuncha asosiga qurilgan: Ota-bobolari-miz shunday deb tanbeh beradilar: “O'choqboshini hech qachon qo'shnining devoriga yopishtirib solma. Taom pishirayotganda o'chog'ingdan chiqqan tutun qo'shnining ko'zini achitsa, yegan ovqating harom bo'ladi!”. ...O'zbekning andishasini isbotlash uchun yana qanday misol kerak? [Hoshimov 2018, 11].

Tildagi qarindoshlik atamalari ham madaniyatni ochuvchi so'zlardir. O'zbek tilida, rus va ingliz tillaridan farqli ravishda,

amaki, tog'a, amma, xola so'zlari mavjud. Bu so'zlar ifodalaydigan tushunchalar o'zbek madaniyatida alohida o'rin tutadi, chunki bu so'zlarning denotatlari bo'lgan *amaki, tog'a, amma, xola* oilaviy munosabatlarda muhim ishtirokchi. Rus va ingliz tillarida ayni tushunchalarning har biri uchun alohida so'z yo'q, ular "дядя" (uncle), "тётя" (aunt) tarzida umumlashtirilgan xolos.

Bundan tashqari, o'zbek lingvomadaniyatida "amakining o'g'il-qizlari", "xolaning o'g'il-qizlari" tushunchalari uchun alohida *amakivachcha, xolavachcha* so'zlari bor, rus va ingliz tillarida unday emas, shu bois bu tushunchalar rus tilida "двоюродный брат", "двоюродный сестра" (umuman, *amaki, tog'a, amma, xolaning farzandlariga nisbatan*) birikmalari bilan ifodalanadi. Rus tilidagi "кузен" so'zi esa amaki, tog'a, amma, xolaning farzandlariga nisbatan umumiy qo'llanaveradi.

Yoki o'zbek lingvomadaniyatidagi *ichkuyov* tushunchasini beruvchi so'z rus tilida yo'q, chunki rus madaniyatida kuyovga va ichkuyovga o'zbeklardagidek munosabat shakllanmagan. O'zbek lingvomadaniyatidagi "Ichkuyov – puch kuyov" tarzidagi munosabat bu lingvomadaniyat uchun yot. Bu tushuncha "jivushiy v dome u tyoshi" deb o'giriladi xolos. Nemis lingvomadaniyatida "qaynana" va "qaynata" tushunchalarini ifodalovchi so'zlar yo'q, zarurat tug'ilganda, "er (xotin)ning onasi", "er (xotin)ning otasi" birikmalari bilan ataladi.

Til va madaniyat – o'zaro jips bog'liq hodisalar, ya'ni madaniyat fonida til yangi birliklar bilan boyiydi, til fonida madaniyat yangi tushunchalarga ega bo'ladi. Bir tildagi muayyan so'zning boshqa tilda muqobili topilmasligining sababi ayni tushuncha yoki realiyaning o'sha madaniyatda yuzaga kelgani, o'sha madaniyatga tegishli ekanligida. Bir tildan boshqasiga so'z o'zlashtirilishining asl sababi shu va bu jarayonda o'zlashma so'z bilan birga madaniyat ham qabul qilinadi. Masalan, bambuk o'simligi – vietnam xalqi turmushining ajralmas qismi, vietnamliklar bu o'simlikning ko'plab turlarini yetishtiradi, xalq xo'jaligida uning har bir turidan alohida maqsadlarda foydalanadi. Shu bois vietnam tilida bambukning 13 xil nomi va demakki, ana shuncha turi bor, ammo yevropaliklar turmushda bu o'simlikdan foydalanmagani sababli bambuk tushunchasini beruvchi so'z ijod qilinmagan. Xo'jalik taraqqiyotining keyingi davrlarida yevropaliklar turmushiga bambuk tushunchasi kirib borishi bilan bambuk so'zi qabul qilingan [Даниленко 2010, 30].

E. Sepir til va madaniyatning bir-biriga ta'sirini o'rganar

ekan, madaniyat – muayyan jamiyatning o'ylagani va qilgani, til esa muayyan jamiyatning o'ylaganidir [Сепир 1993, 193], deydi. Hech shubhasiz, milliy nigoh milliy til tufayli originaldir. Tillardagi mazata'm, rang-tus bildiruvchi so'zlarda milliy nigohning unikalligi juda aniq seziladi. Masalan, o'zbek kamalakni yetti xil rangda ko'radi, xitoylik uch xil rangda idrok etadi. Ikki xalq ranglar spektrining, denotatlar miqdorining farqliligi milliy nigohning, olamning lisoniy manzaralarining o'ziga xosligidan.

O'zbek tilida "ko'k" tushunchasi *ko'k, moviy, havorang, lojuvard, yashil* tushunchasi *ko'k, ko'm-ko'k, yashil, zangori* so'zlari bilan ifodalanadi. Ya'ni o'zbek madaniyatida har ikki tushunchani nomlovchi bir necha so'z mavjud va ular ayni ranglarni birday ifodalaydi, balki ko'k va yashil ranglarining turlicha darajalarini ko'rsatadi. Demak, o'zbek ranglararo har xillikni bilish jarayonidayoq farqlagan. "Braziliyadagi kamayura hindilarining tilida ko'k va yashil ranglarni ifodalash uchun alohida so'zlar yo'q, "to'ti rangi" birikmasi har ikki rangni ifodalaydi" [Исрафилова 2010, 85]. Bu holat kamayura hindilari nutqiy faoliyatida qiyinchilik tug'dirmaydi, chunki ularning milliy nigohi, ranglar spektri kamayura lingvomadaniyatiga moslashgan.

Har millat vakili olamni o'ziga xos ko'rishi V. fon Gumboldt davridan aytib kelinadi. O'zbek tilshunosligida ham chorak asrdan buyon olamning lisoniy manzarasi har bir tilda har xil bo'lishi, til millatning olami hodisalarini idrok etish vositasi ekanligi haqida gapirilmoqda. V. fon Gumboldtning "tilning ichki shakli" g'oyasini "so'zning ichki shakli" tarzida rivojlantirgan A.A.Potebnya mazkur termin ostida so'zning ham ilmiy-mental, ham etnomadaniy jihatlar bilan to'yingan ma'nosini tushungan. So'zning ichki shakli - semantikasidagi bu jihatlar, tabiiyki, xalqning borliqni bilish tarzini, "idrok intizomi" (N.Mahmudov termini)ni ko'rsatib turadi va eng asosiysi, ma'noni milliylashtiradi. Shu bois ham borliqdagi bir predmet, deylik, o'simliklarni nomlashda har bir xalq uni o'zicha ko'rgan, ya'ni nomlashda o'simlikka biri shakli, biri xususiyatidan kelib chiqib yondashgan. Masalan, ayiqtovon degan o'simlikka nom berishda o'zbek uning shakliga, ya'ni ayiqning tovoniga o'xshab ketishini asos qilib olgan. Ruslar esa o'simlikning xususiyatini - zaharliliginu asosga olgan va "yirtqich", "qonxo'r", "shafqatsiz", "ashaddiy" ma'nolarini bildiruvchi "lyutiy" so'ziga -*ik* kichraytirish suffiksini qo'shib so'z yasagan. Inglizlar esa ayni o'simlikdagi rangni - sariqliknin faollashtirib, "buttercup" (yog'chashka) deb nomlagan. Demak, bilishning o'ziga xosligi bois bitta narsani nomlashda uning

turli tomonlari, xususiyatlari faollashtirilmoqda.

Ma'no taraqqiyoti va milliy-mental xususiyatlar, olamning lisoniy manzarasi va ma'no taraqqiyoti haqidagi fikrlarni olamni metaforik anglashda ham ko'rindi. Garchi metafora barcha tillar uchun universal hodisa, olamni metaforik anglash barcha xalqlar uchun universal jarayon bo'lsa ham, ammo olam va odamni metaforik anglash, hodisalarni metaforiklashtirishdek kognitiv jarayonlar har bir xalq va tilda o'ziga xos voqelanadi. Olam lisoniy manzarasining o'ziga xosligi ham shundandir. Olamning lisoniy manzarasining originalligi sababli milliy-madaniy assotsiatsiyalar ham o'ta milliy bo'ladi. Masalan, rus tilidagi *eshik* so'zi bilan bog'liq assotsiatsiyalar ichida "ochiq" tushunchasi, fin xalqida esa "yopiq" tushunchasi yetakchilik qilar ekan. Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti B.Tojiboyevning shu universitet talabalari bilan o'tkazgan tajriba natijalari *eshik* so'zi ko'proq *yopiq* tushunchasi bilan assotsiatsiya hosil qilishini ko'rsatdi.

N.G.Mixaylovskaya o'z maqolalaridan birida rus tilida ijod qilgan T.Po'latovning fikridan iqtibos keltiradi. Unda yozuvchi o'zbek va rus xalqlarining quyosh va oyga munosabati haqida so'z boradi: "O'zbek quyoshning jazirama issig'i ostida yilning asosiy qismini o'tkazadi, shu bois u hech qachon *quyoshjon*, *oftobjon* tarzida erkalovchi so'zlarni aytmaydi, xuddi ruslarda quyoshga nisbatan hosilni mo'l qiluvchi va yerni yangilovchi, biroq zararli degan sezgi bo'limganidek. Aksincha, oyga nisbatan butunlay boshqacha munosabat mavjud – barcha chiroqli narsalarni alohida ohang bilan *go'zal*, *mahvash* deb ataydilar, garchi ruslar uchun kamida balandparvoz gapdek tuyulsa ham [Михайловская 1979, 64]. To'g'ri, O'zbekistonda quyoshli kunlar ko'p, ayniqsa, yoz oylarida quyoshning jazirama nurlaridan zarar ham yetadi. Shu bois o'zbek tilida quyoshning jaziramasi keltiradigan noxushliklar ifodalagan frazeologizm, maqol, matallar mavjud. Ayni paytda, tilimizda erkalash-erkalatish mazmunidagi "quyoshjon", "oftobjon" so'zleri faol qo'llanadiki, bu o'zbekning quyosh bilan bog'liq milliy-madaniy assotsiatsiyasining natijasidir. Darhaqiqat, oy bilan bog'liq milliy-madaniy assotsiatsiyalarining markazida "go'zallik", "chiroylilik" tushunchalari turadiki, bu o'zbekka xos milliy-madaniy assotsiatsiyalarining rus xalqinikidan farqini ko'rsatadi. Shu ma'noda muayyan xalqning tili, dunyoqarashi haqida gap ketganda, bir qadar ehtiyyotkorlik lozim, chunki xalqning hislarini uning tilida anglamasdan turib, uning olam va odamga munosabati to'g'risida rost va raso so'zni aytish mushkul.

Odamning olamni bilishi qiyoslashga asoslangan, odam ikki narsani qiyoslab ko'rib, bu yaxshi, bu yomon tarzida xulosalashga o'rgangan. Bilishning bu shakli har millatga birday xos, biroq baholash o'ziga mos. Shu jihatdan o'zbek ijobiliy ottenkada idrok qiladigan rangni boshqa xalq salbiy baholaydi, ayrim ranglar esa birday ijobiliy yoxud birday salbiy baholanishi mumkin. Masalan, dunyo xalqlarining aksariyatida oq rang – yaxshilik, ezgulik ramzi, qora rang – yomonlik, yovuzlik timsoli. O'zbek lingvomadaniyatida ham ayni ranglar shunday baholarda o'rashgan va buni quyidagi matn aniq ko'rsatadi: *Inson hayoti shatranj taxtasidagi piyodaning yurishiga o'xshaydi... Goh oq katakdan o'tadi, goh qora katakdan... Farqi shuki, birovning qismatida oq kataklar ko'proq bo'ladi, birovnikida – qora kataklar...* [Hoshimov 2018, 29]. *Qora qog'oz harchand yuvgan bilan oq bo'lmaydi. Oq qog'ozni qora qilish uchun bir chiziq tortish kifoya. Qorani oqlash emas, Oqni qoralamaslik adolatdir* [Хошимов 2018, 20].

Ammo turkiy tafakkur qora rangni "ulug'lik, buyuklik" ramzi o'laroq ham baholagan. Ya'ni XI-XII asrlarda katta bir imperiyaning nomi "qoraxoniyalar" deb atalgani, "Farhod va Shirin" dostonida Chin xoqoni o'g'il ko'rganda mamlakatdagi devorlarga qora rangli mato yopishni buyurgani turkiy tafakkurda qora rang salbiy konnotatsiyadangina iborat bo'lmanagini ko'rsatadi. Insonning tilga faol ta'sir qilishi va buning natijasida tilda turli o'zgarishlar yuz berishidek lingvistik qarash turkona tafakkurdagi qora rang bilan bog'liq ayni o'zgarishlarda aniq ko'rindi.

Millat lingvomadaniyatida yuz beradigan rang bilan bog'-liq o'zgarishni qizil so'zi misolida ham ko'rish mumkin. Sho'rolar davrida qizil rangga o'ta ijobiliy munosabatda bo'lingan. Sobiq ittifoqning qariyb barcha ramzlarida qizil rangga ustuvorlik berilgan. Sovet mafkurasidagi bu jihat ittifoqdosh respublikalar tillariga ham ko'chgan. O'zbek tilining yaqin o'tmishida *qizil yulduz, qizil bayrog, qizil armiya* singari birikmalar yuzaga kelgan va faol qo'llangan. Ittifoq parchalangandan so'ng tashkil topgan mustaqil respublikalarda bu rang o'shanday mazmunda idrok qilinishdan to'xtadi, ammo tabiiy tushuniladigan holatlarda saqlandi. Masalan, O'zbekiston bayrog'idagi qizil chiziqlar tomirlarimizda oqayotgan qon ramzi sifatida talqin etiladi. Ammo rus lingvomadaniyatida qizil rang bilan bog'liq ijobiliy munosabat hanuz saqlangan va buning sababi yaxshi ma'lum. O'zbek tilida *suvtekin* deb ifodalanadigan "juda arzon" ma'nosi rus tilida "krasnaya sena" tarzida yetkaziladi.

Demak, vaqt o'tishi bilan xalqning bilish tarzida ham, uning

ta'sirida olam lisoniy manzarasida ham yangilanishlar bo'ladi. Olam va odam bilan bog'liq bu o'zgarishlar davr o'tishi bilan madaniy an'analarga aylanadi. Til bunday an'analarni milliy qadriyat sifatida to'playdi, saqlaydi, ifodalandi.

Lingvomadaniyatshunoslikka oid tadqiqotlarda har bir lingvomadaniyatda shu xalqning mentaliteti asosida shakllanadigan, madaniy o'ziga xoslikni ko'rsatadigan konseptlari mavjudligi, bu konseptlar asosida tilda alohida semantik maydonlar yuzaga kelishi haqida gapirilmoqda. Masalan, inglizlarning olam lisoniy manzarasida "maxfiylik" semantik maydoni, nemis xalqiga xos olamning lisoniy manzarasida "punktuallik" semantik maydoni, fransuz xalqiga xos olamning lisoniy manzarasida "yashashni bilish yoki hayotdan zavq olish" semantik maydoni ana shunday madaniy konseptlardir [Карасик В.Б. 2005]. Diqqat qilinsa, bu konseptlar shu xalqlarning eng xarakterli belgilari hisoblanadi, bu xalqlar kundalik turmush va faoliyatda shu konseptlar doirasida ko'p harakatlanadi.

Madaniyat millat vakillarining oila, mahalla, jamiyat bilan bo'ladigan munosabatlarda verbal va noverbal voqelanadi. O'zbek mentalitetini xarakterlovchi madaniy kontseptlar mavjud. Masalan, "soddalik", "jamoaviylik", "bolajonlik", "hazilkashlik", "mehmondo'stlik", "kechirimlilik", "ko'ngilchanlik", "o'jarlik", "mutelik", "loqaydlik", "isrofgarchilik" kabilalar. Mazkur madaniy konseptlar xalq turmushiga shu qadar chuqur singib ketganki, ularning lisoniy voqelanishini badiiy matnlarda ko'p uchratish mumkin. Quyidagi matnda ajratib ko'rsatilgan o'rinnarda "ko'ngilchanlik", "o'jarlik", "mutelik", "bolajonlik" konseptlar darajama-daraja namoyon bo'lgan:

- Osmon baravar rejani berdilar.
- Bajarasan! – dedilar.
- **Bajarolmayman!** – dedi.
- Bajarasan!!! – dedilar.
- **Bajarmayman!!** – dedi.
- Qamalasan!!! – dedilar.
- **Bajardi... Bola-chaqasi ko'p edi...**
- Orden berdilar... Rejani oshirib bajargani uchun...

Keyin... qamadilar... Qo'shib yozgani uchun... Bola-chaqasi ko'p edi... (O'Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar).

Xulosa

Inson bor ekan, madaniyatga ehtiyoj sezadi, inson ana shu xususiyatga egaligi bilan boshqa jonzotlardan ajralib turadi, jamiyat a'zolari ana shu ehtiyoj sabab mavjud tajribalarni to'playdi va

qadriyatga aylantiradi. Agar inson madaniyat deb ataladigan ajdodlar tajribasi va qadriyatlarga ega bo'limganda, xulq-atvori ijtimoiy-madaniy ko'nikmalar bilan emas, jismoniy instinkti yordamidagina boshqarilganda, boshqa jonzotlardan farqlanmas edi. Insonning insonligini ta'minlaydigan bu ruhiy quvvat esa til tufayli mavjud va bu mavjudlikning bosh sharti ham til. Madaniy bilimlar muayyan nomlarda jamlangani, avloddan avlodga o'tgani uchun ham milliy madaniyat har bir avlodka qayta yaratilmaydi.

Adabiyotlar

- Бочегова, Н.Н. 2010. *Этнос. Язык. Концептосфера*. Курган: Изд-во Курганского гос. ун-та.
- Боас, Ф. 2020. *Ум первобытного человека*. Москва: Юрайт.
- Будагов, Р.А. 1971. *История слов в истории общества*. Москва: Просвещение.
- Вежбицкая, А. 2001. *Понимание культур через посредство ключевых слов*. Москва: Языки славянской культуры.
- Вежбицкая, А. 1996. *Язык. Культура. Познание*. Москва: Русские словари.
- Вежбицкая, А. 2011. *Семантические универсалии и описание языков*. Москва: Языки славянской культуры.
- Вежбицкая, А. 2011. *Семантические универсалии и базисные концепты*. Москва: Языки славянской культуры.
- Даниленко, В.П. 2010. *Введение в языкознание*. Москва: Флинта: Наука.
- Зализняк, А., Левонтина, И.Б., Шмелёв, А.Д. 2005. *Ключевые идеи русской языковой картины мира*. Москва: Языки славянской культуры.
